



ISSN: 2181-9416

4-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

4-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEPI 4

LAWYER HERALD

ISSUE 4



SAIDOV Maqsudbek NorboyevichToshkent viloyat ma'muriy sudining sudyasi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)E-mail: mr.msaidov@gmail.com

“MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT” TASHKILIY-HUQUQIY SHAKLINING HUQUQIY TABIATI VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDA UNING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): SAIDOV M.N. “Mas’uliyati cheklangan jamiyat” tashkiliy-huquqiy shaklining huquqiy tabiati va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida uning huquqiy tartibga solinishi // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2026) B. 73-83.

 4 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/4-008>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mas’uliyati cheklangan jamiyatning tashkiliy-huquqiy shakli sifatidagi huquqiy tabiati, uning o‘ziga xos xususiyatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida huquqiy tartibga solinishining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Maqolada mas’uliyati cheklangan jamiyatning yuridik shaxs sifatidagi maqomi, ishtirokchilarning cheklangan javobgarligi, ustavning huquqiy ahamiyati, korporativ boshqaruv tizimi va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari ilmiy-huquqiy nuqtai nazardan yoritilgan. Shuningdek, milliy qonunchilikning rivojlanish tendensiyalari romano-german va anglo-amerika huquq tizimlariga xos yondashuvlar bilan qiyosiy tahlil qilinib, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar faoliyatini huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Maqolada korporativ munosabatlarni takomillashtirish, jamiyat ustavining huquqiy ahamiyatini kuchaytirish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayonida huquqiy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish hamda ishtirokchilar va kreditorlar manfaatlarini muvozanatini ta’minlashga qaratilgan ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, maqolada mas’uliyati cheklangan jamiyatning ichki korporativ hujjatlari, xususan, ustav, ta’sis shartnomasi va korporativ shartnomaning huquqiy tabiati hamda ularning o‘zaro farqli jihatlari yoritilgan. Jamiyat ustav fondi (ustav kapitali)ning huquqiy mohiyati, uning kreditorlar manfaatlarini ta’minlashdagi o‘rni hamda “mustahkam ustav kapitali” tamoyilidan to‘lovga qobiliyatlilik testi konsepsiyasiga o‘tishning huquqiy xususiyatlari tahlil qilingan.

Shu bilan birga, jamiyat ustavini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayonida uning qonunchilik talablariga muvofiqligini tekshirish mexanizmlarini kuchaytirish, korporativ boshqaruvning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash hamda korporativ nizolarning oldini olishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni yanada rivojlantirish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: mas’uliyati cheklangan jamiyat, korporativ munosabat, jamiyat ichki lokal hujjatlari, korporativ boshqaruv, ishtirokchi, ishtirokchilarning cheklangan javobgarligi, huquqni amalga oshirish, huquqni himoya qilish.

САИДОВ Максудбек НорбоевичСудья Ташкентского областного административного суда,
доктор философии по юридическим наукам (PhD)E-mail: mr.msaidov@gmail.com

ПРАВОВАЯ ПРИРОДА ОБЩЕСТВА С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ КАК ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОЙ ФОРМЫ И ЕГО ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется правовая природа общества с ограниченной ответственностью как организационно-правовой формы, его специфические особенности, а также теоретические и практические аспекты его правового регулирования в законодательстве Республики Узбекистан. Исследование охватывает статус общества с ограниченной ответственностью как юридического лица, ограниченную ответственность участников, правовое значение устава, систему корпоративного управления и механизмы защиты интересов кредиторов с научно-правовой точки зрения. Также анализируются тенденции развития национального законодательства в сравнении с подходами, характерными для романо-германской и англо-американской правовых систем, выявляя специфические особенности правового регулирования деятельности обществ с ограниченной ответственностью. В статье разработаны научные выводы и предложения, направленные на улучшение корпоративных отношений, усиление правового значения устава компании, совершенствование механизмов правового контроля при государственной регистрации и обеспечение баланса интересов участников и кредиторов.

Кроме того, в статье освещаются внутренние корпоративные документы общества с ограниченной ответственностью, в частности, правовая природа устава, учредительного договора и корпоративного договора, а также их взаимные различия. Проанализированы правовая сущность уставного фонда (уставного капитала) общества, его роль в обеспечении интересов кредиторов, а также правовые особенности перехода от принципа «крепкий уставный капитал» к концепции теста платежеспособности.

Вместе с тем обоснована необходимость дальнейшего развития правовых механизмов, направленных на усиление механизмов проверки соответствия устава общества требованиям законодательства в процессе его государственной регистрации, обеспечение открытости и прозрачности корпоративного управления, а также предотвращение корпоративных споров.

Ключевые слова: общество с ограниченной ответственностью, корпоративные отношения, внутренние локальные документы общества, корпоративное управление, участник, ограниченная ответственность участников, реализация прав, защита прав.

MAKSUDBEK Saidov

Judge of the Tashkent Regional Administrative Court,

Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD)

E-mail: mr.msaidov@gmail.com

LEGAL NATURE OF THE ORGANIZATIONAL LEGAL FORM “LIMITED LIABILITY COMPANY” AND ITS LEGAL REGULATION IN THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ANNOTATION

This article analyzes the legal nature of a limited liability company as an organizational and legal form, its specific features, and the theoretical and practical aspects of its legal regulation in the legislation of the Republic of Uzbekistan. The study covers the status of a limited liability company as a legal entity, the limited liability of participants, the legal significance of the charter, the corporate governance system, and the mechanisms for protecting the interests of creditors from a scientific and legal point of view. Also, the development trends of national legislation are analyzed in comparison with the approaches typical of the Romano-Germanic and Anglo-American legal systems, revealing the specific features of the legal regulation of the activities of limited liability companies. Based on the results of the study, scientific conclusions and proposals have been developed aimed at improving corporate relations, strengthening the legal significance of the company's charter, improving legal control mechanisms during state registration, and ensuring a balance of interests of participants and creditors.

Furthermore, the article highlights the internal corporate documents of a limited liability company, specifically the legal nature of the charter, foundation agreement, and corporate agreement, as well as their mutual differences. The legal essence of the authorized fund (authorized capital) of the company, its role in ensuring the interests of creditors, as well as the legal features of the transition from the principle of “strong authorized capital” to the concept of solvency test are analyzed.

At the same time, in the process of state registration of the company's charter, it is necessary to strengthen the mechanisms for verifying its compliance with legislative requirements, ensure the openness and transparency of corporate governance, and further develop legal mechanisms aimed at preventing corporate disputes.

Key words: limited liability company, corporate relations, internal local documents of the company, corporate management, shareholder, limited liability of shareholders, realization of rights, protection of rights.

Har bir zamonda muayyan yangilikning yaratilishi o'ziga xos qarshiliklarga ham sabab bo'lgan. Bugungi kunda dunyoning barcha davlatlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun eng qulay tashkiliy-huquqiy shakl bo'lgan mas'uliyati cheklangan jamiyat (matnda MChJ)ning [1] paydo bo'lishi va rivojlanishi ko'p qarshiliklarga uchragan va katta bahslar ostida rivojlangan. MChJning qonunchilikdagi huquqiy konstruksiyasi doirasida eng ko'p bahs-munozaralarga sabab bo'lgan jihat uning ishtirokchilari mas'uliyatining cheklanganligi instituti hisoblanadi. Kreditorlar, xususan delikt huquqidan kelib chiqadigan majburiyatlar uchun ham cheklangan javobgarlikning mavjudligi, huquqshunoslar va siyosatchilar tomonidan turli bahs-munozaralarga sabab bo'lgan va ko'p ziddiyatlarni keltirib chiqargan. Shu nuqtai-nazardan yondashilganda, MChJning tashkil etilishiga xavf sifatida qaralgan. Hattoki ayrim adabiyotlarda MChJning tashkil etilishi boylarning siyosiy lobbisi sifatida qoralangan jihatlar ham mavjud. Masalan, Lord Karrixel (Lord Curriehill) MChJning yaratilishi quyidagi 3 ta xavfni keltirib chiqarishini bashorat qilgan: kreditorlarning firibgarlik qurboni bo'lishlari, tavakkalchilik investordan kreditora o'tkazilishi oqibatida spekulyatsiya kuchayishi, cheklangan mas'uliyat MChJga an'anaviy

korxonalardan ustunlik berish orqali raqobat qoidalarining buzilishi [2]. Sol Levmore, MChJni “biznes uchun chegarani kengaytiruvchi innovatsiyadan ko‘ra ko‘proq manfaatlar guruhi siyosatining baxtsiz mahsuli” deb ta’riflagan [3].

Aksiyadorlik jamiyati shaklidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar tashkil etilgandan keyin ayrim tadbirkorlar yuqori foiz to‘lash sharti bilan aholidan moliyaviy resurslarini to‘plashni boshlagan. Biroq huquqiy tizim tartibga solinmaganligi sababli bu jarayon ko‘plab muammolarni keltirib chiqargan, jamiyatda firibgarlik jinoyati ko‘payib, aholining e’tirozlariga sabab bo‘lgan. Bunday sharoitda aksariyat davlatlar tomonidan kichik va o‘rta tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta’minlaydigan, qulay ixcham tadbirkorlik subyektini yaratish maqsad qilib belgilangan. Shu tariqa o‘sha davrda qonunchilik tizimi boshqa davlatlarga qaraganda bir muncha oldinlab ketgan Buyuk Britaniyada tadbirkorlikni MChJ shaklida ro‘yxatdan o‘tkazish erkinligi 1855-yildagi “Mas’uliyati cheklangan jamiyat to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinishi bilan boshlab berilgan [4].

Gavel (Bohumil Havel) MChJga aralash kompaniya yoki o‘ziga xos elementlarga ega bo‘lgan kapital kompaniya deb ta’rif beradi. Huquqshunos olim MChJni kapital kompaniyalarga xos xususiyatlarni (asosan sheriklarning kompaniya majburiyatlari bo‘yicha javobgarligi cheklangan) hamda xususiy kompaniyalarning xususiyatlarini (asosan, sheriklarning muayyan fundamental masalalar bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri qaror qabul qilish imkoniyatini) birlashtiradi va shuning uchun iqtisodiyotning turli sohalarida kichik va kengroq tadbirkorlik uchun foydalaniladigan universal huquqiy shakl deb tasvirlaydi [5]. Larri Ribshteyn (Larry E. Ribstein) MChJning afzalliklarini inobatga olib, MChJning huquqiy maqomi qonun tomonidan to‘liq tasdiqlangandan keyin to‘liq shirkat a‘zolari o‘z faoliyatini davom ettirmasliklarini taxmin qilishini va yangi tashkiliy-huquqiy shakl shirkatning “o‘limiga” sabab bo‘lishini ta’kidlagan [6]. Xuddi shunday yondashuv amerikalik huquqshunos olim Sol Levmore (Saul Levmore) tomonidan ham ilgari surilib, MChJning yaratilishini, garchi kreditorlarning ko‘pchiligi bu holatni salbiy qabul qilsa-da, shirkat sifatida faoliyat yuritayotgan sheriklar ham sheriklik shaklidan mas’uliyati cheklangan jamiyat shakliga o‘tishini aniq holat bo‘lib qolishini bildirgan [7].

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, MChJning bir qancha: qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat (Belarusiyada[8]), soddalashtirilgan mas’uliyati cheklangan jamiyat (Germaniyada) kabi ko‘rinishlari mavjud. Albatta ular faqatgina nomalari bilangina emas, balki o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Masalan, qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatda ulushdorlarning qo‘shgan hissalariga nisbatan MChJning ta’sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgarlik mavjud. Soddalashtirilgan MChJda uning ishtirokchilari soni (1-3), ustav kapitaliga nisbatan talab (1 yevro), ro‘yxatdan oson o‘tkazilishi, sof foydaning bir qismini zaxiraga olinishi majburiyatlari mavjud.

MChJning dunyo bo‘ylab keng tarqalishiga bir qator faktorlarni sabab sifatida sanab o‘tish mumkin. Xususan, tashkil etish mexanizmining soddaligi, qulay tashkiliy boshqaruv va nazorat, erkin faoliyat kafolati, korporativ munosabat subyektlari o‘rtasidagi vakolatlarining aniq belgilanganligi, javobgarligi chegaralangan kuchli huquqiy himoya shular jumlasidandir. Shuningdek, ijtimoiy muhit, siyosiy yondashuv va qonunchilikda o‘rnatilgan imtiyoz va preferensiyalar (MChJ investorlarining huquqlarini himoyasi sifatida cheklangan javobgarlik, soliq majburiyatlari bo‘yicha kafolatlar) ham MChJning jozibadorligini oshirib, keng tarqalib borishiga muhim omil hisoblanadi.

MChJ uchta asosiy xususiyatni: qarzdorlik qobiliyati va qarzdorlik majburiyatlarini bajara olish, sudda da’vogar va javobgar bo‘la olish, kompaniyaning mulki ishtirokchining mulkidan ajratilganligini[9] o‘zida mujassamlashtirgan alohida yuridik shaxs (**separate legal personality**) hisoblanadi. MChJdagi ulushlarning harakatlanishi (**transferability of shares**), ya’ni bir shaxsdan boshqa shaxsga erkin o‘tishi uning huquqiy va iqtisodiy afzalliklaridan biri hisoblanadi. Ya’ni jamiyat ishtirokchilari o‘zgargan taqdirda ham jamiyat faoliyatini barqaror davom etadi. Shu bilan birga, ishtirokchilar uchun moliyaviy likvidlik va investitsiyadan chiqish imkonini beradi. Jamiyatdagi boshqaruvning mulkdan ajratilganligi esa zamonaviy korporativ tuzilmaning asosiy prinsiplaridan biri sifatida tan olinadi. MChJning rivojlanib tarqalishidan nafaqat korporativ munosabat subyektlari, shuningdek davlat va jamiyat ham manfaatdor hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan MChJga moliyaviy diversifikatsiyaning akseleratori sifatida qaralishi

mumkin. Chunki, MChJda mulkdorlik (ownership) va boshqaruv (management) ajratilganligi sababli investor mablag'larini faqat bir MChJga emas, bir nechta turli sohalaridagi MChJga sarmoya qilish imkoniyati yaratiladi. Shu bois, ayrim iqtisodchilar MChJning yaratilishini biznesdagi rivojlanish nuqtasi deb ta'riflashadi.

Maqsadi foyda olishga qaratilgan MChJning tabiatini yoritib berish uchun uning xususiyatlarini umumiy va maxsus guruhlariga bo'lib o'rganish lozim. MChJda yuridik shaxsning barcha belgilari (huquqiy subyektlik, mulkiy mustaqillik, mustaqil moliyaviy javobgarlik, huquqiy munosabatlarda ishtirok etish, tashkiliy-huquqiy birlik, davlat ro'yxatidan o'tish) umumiy xususiyat sifatida mavjud. Jamiyatning alohida yuridik shaxsligi (fuqarolik huquqiy munosabatning subyektligi) korporativ huquqning eng asosiy belgilaridan biridir. Shu bilan birga MChJda quyidagi maxsus xususiyatlar mavjud:

1) MChJ a'zolarining jamiyatga bergan mol-mulkiga nisbatan majburiyat huquqi;

2) Ustav kapitalining ulushlarga bo'linishi;

3) A'zolarining hissalarini evaziga yaratilgan, shuningdek MChJ tomonidan faoliyati davomida orttirilgan mol-mulkka nisbatan subyektiv mulk huquqining mavjudligi;

4) Egalik va boshqaruvning ajratilganligi (yoki aktivlarning taqsimlanganligi);

5) A'zolarining cheklangan javobgarligi.

Korporativ huquqda ushbu tashkiliy-huquqiy shakl uchun eng muhimi aktivlarni taqsimlash (**asset partitioning**) deb ataladi [10]. Aynan ushbu xususiyat ishtirokchilarni jamiyatning kreditorlaridan himoya qiladi, jamiyat majburiyatlari uchun ishtirokchining mulkiy javobgarligini chegaralaydi, shaxsiy mulki daxlsizligini ta'minlaydi.

MChJdagi asosiy va ajralib turuvchi muhim jihat, undagi jamiyat majburiyatlari bo'yicha ulush egalari javobgarligining cheklanganligi bo'lib, bu me'yor tavakkalchilik bilan ish boshlash va yuritish uchun katta imkoniyat hisoblanadi. Cheklangan javobgarlik investorlar uchun yo'qotish xavfini minimallashtiradi, sug'urta xarajatlarini kamaytiradi va tadbirkorlik bilan shug'ullanish orqali boylik orttirish uchun jozibadorlikni oshiradi. Shirkat a'zolaridan farqli ravishda soliqlarni a'zolar emas, balki jamiyatning o'zi to'laydi. Ulushdorlar jamiyat faoliyati bo'yicha faqatgina dividend olgan taqdirdagina dividend solig'ini (masalan, O'zbekistonda 5%) to'laydi. Biroq ayrim mutasaddilar ushbu holatni MChJ tomonidan olingan daromadga ikki karrali soliqqa tortish mavjudligi sifatida (birinchi marta jamiyat tomonidan olgan daromad bo'yicha foyda solig'i (15%), ikkinchi marta ulushdorga dividend to'langanda) qoralaydi. Fikrimizcha, soliq qonunchiligi bu holatga jamiyat va uning ulushdorlari ajratilganligi (incorporation) sababli alohida subyekt-soliq to'lovchi sifatida yondashadi.

Milliy qonunchiligimizda MChJ nemis konsepsiyasi asosida tashkil etilgan bo'lsa-da, uni sof nemis klassik holatidagi MChJ deb bo'lmaydi. Chunki iqtisodiy-huquqiy globallashtirish oqibatida O'zbekistondagi MChJlarda umumiy huquqning bir qator jihatlarini kuzatish mumkin. MChJning ustav kapitaliga nisbatan talablarning bekor qilinganligi, jamiyatning foydasini jamiyat ishtirokchilari o'rtasida taqsimlashdagi cheklashlar asoslarining o'rnatilishi Qonunga umumiy huquq normalaridan implementatsiya qilingan.

"Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (matnda Qonun deb yuritiladi)ning 3-moddasida ulushdor MChJning majburiyatlari bo'yicha javobgar hisoblanmasligi va MChJ faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zining qo'shgan hissasi doirasida javobgar ekanligi belgilangan. Ushbu ta'rifdan kelib chiqib, ayrim soha mutaxassislari tom ma'noda mas'uliyati cheklanganlik tushunchasini javobgarlikning cheklanganligi deb ta'rif berishadi. Bir qarashda ushbu ta'rif xato emas, biroq ilmiy nuqtai nazardan yondashilganda bu javobgarlik emas, balki tavakkalchilik hisoblanadi. Shu sababli nazariy jihatdan "javobgarlik" tushunchasiga berilgan ta'rifdan kelib chiqib, biz mazkur fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi deb hisoblaymiz. Xususan, L.Luns va I.Novitskiy fuqarolik-huquqiy javobgarlik bu majburiyatni bajarmaslik oqibati deb sodda ta'rifni bergan bo'lsa, O.Ioffe javobgarlik bu huquqbuzarlik uchun shunchaki sanksiya emas, balki shaxsiy va mulkiy xarakterdagi ma'lum mahrum bo'lishlarni keltirib chiqaradigan sanksiya deb ta'kidlaydi [11]. Akademik H.Rahmonqulov fuqarolik-huquqiy javobgarlik huquqbuzarning shaxsiga bevosita ta'sir qilib emas, balki uning mulkiga nisbatan undiruv qaratish orqali ta'sir qilib, jabrlanuvchi tarafning buzilgan mulkiy holatini asl holatda tiklash,

agar buning iloji bo'lsa, mulkiy zararni qoplash orqali mulkiy talafotlarni bartaraf etish maqsadiga ega bo'ladi deb ta'kidlaydi [12].

Muassis MChJni tashkil qilarkan, ustav fondagi qo'shgan hissasi MChJga o'tib ketadi va MChJning mulki hisoblanadi. MChJ esa o'zining majburiyatlari bo'yicha o'zining butun mulki, shu jumladan ulushdor tomonidan qo'shgan hissasi bilan javob beradi. Bunday holatda ulushdorda javobgarlik bo'lmaydi, faqatgina MChJga qo'shgan hissasini yo'qotish ehtimoli vujudga keladi. Ishtirokchining MChJ ustav fondiga qo'shgan hissasi muayyan shartlar evaziga ishtirokchi tomonidan MChJga berilgan mulk hisoblanadi. Bunday shartlar jamiyatni boshqarish orqali daromad orttirishda o'z ifodasini topadi.

Fuqarolik huquqida ham umumiy huquqda ham MChJ belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran tashkil etilgan bo'ladi. MChJning ro'yxatdan o'tkazilishi har bir davlatning ichki qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi. Masalan, AQShning Delaver shtatida Delaver shtati Davlat departamentining Delaver Korporatsiyalar bo'limida (Delaware Division of Corporations) [13], Germaniyada Federal Hukumat Reestrining Kompaniyalarning tijorat reestrda (Handelsregister) [14], Polshada Milliy sud reestriga (National Court Register (KRS)) [15] ro'yxatdan o'tish uchun ariza topshiriladi. O'zbekistonda MChJni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2016-yil 28-oktabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 9-fevraldagi 66-son qarorida belgilangan tartibda Davlat xizmatlari markazlari tomonidan amalga oshiriladi [16]. MChJlarni tashkil etish uchun turli davlatlarning qonunchiligida muayyan qo'shimcha talablar va cheklovlar ham mavjud. Masalan, Xitoyda MChJ shaklidagi xorijiy korxona Savdo vazirligining roziligi bilan tashkil etiladi, ustav kapitalining kamida 25 %i naqd pulda bo'lishi kerak. Yevropaning deyarli barcha davlatlarida (jamiyat ustav fondining eng kam miqdori Rossiyada 10 000 rubl (170 yevro atrofida)[17], Germaniyada (GmbH) 25 000 yevro, Avstriyada (GmbH) 35 000 yevro; Vengriyada 12 500 yevro, Shvesariyada 20 000 frank (20 700 yevro atrofida), Gresiyada 18 000 yevro, Xorvatiyada 20 000 kun (2 700 yevro atrofida), Belgiyada 18 600 yevro, Italiyada (SRL) 10 000 yevro, Ispaniyada 3 000 yevro qilib belgilangan [18]) kontinental huquq tizimidagi mustahkam ustav kapitali (Hard capital rule) tamoyili amal qiladi.

Jamiyatning ichki (lokal) korporativ hujjatlari (ustav, ta'sis shartnomasi, korporativ shartnoma)

MChJ haqida so'z yuritilganda, uning faoliyatini tartibga solib turuvchi ichki hujjatlar ham muhim ahamiyatga ega. Ustav jamiyatning lokal me'yoriy-huquqiy hujjati hisoblanib, u jamiyatning tashkiliy-huquqiy asoslarini, boshqaruv tizimini hamda korporativ manfaatlarni ta'minlashga qaratilgan strategik yo'nalishlarini belgilaydi va jamiyat faoliyatining huquqiy hamda tashkiliy asosini aks ettiradi. Jeyms Chen (JAMES CHEN) ustav (ni) - kompaniya faoliyatining qoidalarini belgilaydigan va maqsadini o'zida mujassamlashtirgan hujjat deb ta'riflaydi [19]. Qonunchilikda jamiyat ustavi tushunchasiga ta'rif mavjud emas. Biroq ustavning jamiyatni ta'sis hujjati ekanligi, unda ko'rsatilishi shart bo'lgan ma'lumotlar, ustavning o'zi va unga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalarning davlat ro'yxatidan o'tkazilishi va muayyan holatlarda ustavning uchinchi shaxslar uchun ham huquqiy ahamiyat kasb etishi kabi talablarning belgilanganligi, ushbu hujjatning jamiyat uchun juda muhim ekanligini ko'rsatadi. Shu bois, ayrim adabiyotlarda jamiyat ustaviga uning ichki ishlarini tartibga soluvchi qoidalar va tartiblar jamlanmasi sifatida "jamiyatning konstitutsiyasi" deb ta'rif beriladi[20].

MChJning ustavi jamiyat uchun normativ xususiyatga ega bo'lgan ichki me'yoriy hujjat hisoblanadi. Ustav normalari takroran qo'llanilishi kerak bo'lgan, ijro etilishi bilan amal qilishi to'xtamaydigan, MChJdagi ichki tashkiliy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umumiy majburiy xulq-atvor qoidalarini o'z ichiga oladi. Jamiyat ustavida MChJ haqida to'liq ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi lozim va ustav ham unga kiritilgan o'zgartirishlar ham davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart. Chunki uchinchi shaxslar uchun ustav davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan boshlab kuchga kiradi. Hattoki jamiyatning ustav maqsadlariga zid holda tuzilgan bitim manfaatdor shaxsning da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Jamiyatning ustavi ishtirokchilarning bir ovozdan qabul qilingan umumiy yig'ilish qarori bilan tasdiqlanadi. Unga o'zgartirish va qo'shimchalar ham jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi

vakolatiga kiradi. Milliy qonunchiligimizda barcha korporativ huquq tizimi rivojlangan davlatlarda mavjud bo'lgan ustavni ro'yxatdan o'tkazishdan oldin nazorat qilish (ante control) tizimi mavjud emas. Masalan, Germaniyada ustavni ro'yxatdan o'tkazish bir necha bosqichlarda tekshiruvlar asosida amalga oshiriladi. Ustav notarial tartibda tasdiqlanishi sababli avval notarius uning qonunga muvofiqligini tekshirsa (dastlabki ante control), jamiyatni ro'yxatdan o'tkazishda Tijorat reestri tomonidan takroran huquqiy ekspertizadan o'tkaziladi [21] o'tkazish (qayta ro'yxatdan o'tkazish) uchun taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqqoniyligi hamda ularning qonun hujjatlariga muvofiqligi uchun ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar javobgar hisoblanmaydi va mazkur holatlarni tekshirish majburiyatiga ega emas. Natijada, jamiyat ustavi qonun hujjatlari talablariga zid qoidalarini o'z ichiga olgan taqdirda ham, uni davlat ro'yxatidan o'tkazishga huquqiy to'siq yuzaga kelmaydi. Bunday huquqiy mexanizm esa korporativ munosabatlarda turli nizolarning kelib chiqishiga, shuningdek, ularning sud tartibida ko'rib chiqilishi holatlarining ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Fikrimizcha, milliy qonunchilikda jamiyat ustavini davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonida uning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini tekshirishga qaratilgan samarali nazorat mexanizmlarini joriy etish korporativ munosabatlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim huquqiy omillaridan biri hisoblanadi.

Qonunga ko'ra jamiyatning ustavi bilan bir qatorda jamiyatning ta'sis shartnomasi ham jamiyatning ta'sis hujjati hisoblanadi. Ushbu qoida amaldagi qonunlarimizga boshqa MDHga a'zo davlatlar qonunchiligidagi kabi sobiq ittifoq qonunlaridan "meros" bo'lib o'tgan bo'lib, davlatlarning aksariyatida ushbu hujjatning maqomi o'zgartirilgan va ustav jamiyatning yagona ta'sis hujjati sifatida tan olinadi [22]. Masalan, Rossiya Federatsiyasida ham 2009-yil 1-iyuldan boshlab jamiyatning ta'sis shartnomasi jamiyatning ta'sis hujjati ekanligi to'g'risidagi norma o'zgartirilib, faqatgina jamiyatning ustavi ta'sis hujjati sifatida tan olinadi. Ta'sis shartnomasi MChJ davlat ro'yxatidan o'tkazilgunga qadar ta'sischilar o'rtasidagi majburiy munosabatlarni tartibga soluvchi fuqarolik-huquqiy shartnoma sifatida uning predmeti MChJni tashkil etish bo'yicha birgalikda faoliyatni kelishib olish hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, biz ta'sis shartnomasiga MChJning ta'sis hujjati emas, uni tashkil etishni maqsad qilgan shaxslar o'rtasidagi ahdlashuv deb qaraymiz. Chunki, fuqarolik qonunchiligining mazmuniga ko'ra, ta'sis hujjati yuridik shaxs tashkil etilgan paytdan boshlab va uning to'liq faoliyati davomida yuritiladigan va amal qiladigan hujjat hisoblanadi. MChJning ta'sis shartnomasi korporativ shartnoma hisoblanmaydi. Qolaversa, "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorining qabul qilinishi munosabati bilan 2022-yil 1-dekabrda boshlab MChJning ta'sis shartnomasini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi bekor qilingan.

Germaniyada jamiyatni tashkil etish uchun MChJ Tijorat reyestriga kiritilgunga qadar uning ta'sis shartnomasini tuzish va uni notarial tartibda tasdiqlash alohida bosqich hisoblanadi va ushbu shart amalga oshirilmasdan MChJni ro'yxatdan o'tkazish imkoniyati mavjud bo'lmaydi. Jamiyat Tijorat reyestriga yozuv kiritilgandan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi va ta'sis shartnomasi jamiyatni tashkil etish bosqichlari (ta'sis shartnomasini ishlab chiqish va notarial tasdiqlash, ustav kapitalini shakllantirish, direktor tayinlash, hujjatlarni Tijorat reyestriga taqdim etish, vakolatli organning (Handelsregister) tekshiruvi va reyestriga kiritish) tugaganidan keyin ham o'z kuchini saqlab qoladi [23]. Bunday tartib, ko'plab fuqarolik huquqi tizimi davlatlarida (Fransiya, Chexiya) mavjud bo'lib, ta'sis shartnomasi tuzilib, hujjatlar davlat ro'yxatidan o'tgunga qadar bo'lgan munosabatlar **"pre-Company Law"** [24] doirasida korporativ huquq doirasida tartibga solinadi.

Qonun 10-moddasining ikkinchi qismida jamiyat muassislarining jamiyatni davlat ro'yxatidan o'tkazishga qadar yuzaga kelgan majburiyatlari yuzasidan solidar javobgarligi belgilangan bo'lsa-da, MChJni ta'sis shartnomasiz ham tashkil etish mumkinligi qonunchilikda boshqa bir bo'shliqni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Ya'ni belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan kelishuv orqali javobgarlikni aniqlash imkoniyati ham mavjud bo'lmaydi. Shu bois, yuqorida qayd etilgan normani amalga oshirish mavhum mexanizmini rivojlangan davlatlar korporativ qonunchiligi talablaridan kelib chiqib aniqlashtirish va Qonunga zaruriy qo'shimchalar kiritishni taqozo etadi. Shu o'rinda, ta'kidlash joizki FK 43-moddasining oltinchi qismi mazmuniga ko'ra yuridik shaxsning ta'sis shartnomasiga

kiritilgan o'zgartirishlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozimligi to'g'risida talab mavjud. Biroq bu talab Qonun 12-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq kelmaydi. Chunki, MChJning ta'sis hujjatini davlat ro'yxatidan o'tkazish talabi bekor qilindi. Shu bois, mazkur norma MChJga nisbatan tatbiq etilmasligini inobatga olib, ushbu holat qonunchilikka o'zgartirish kiritish yo'li bilan aniqlashtirilishi lozim.

Barcha huquq tizimlarida allaqachon ishtirokchilarning huquqlarini amalga oshirish mexanizmini tartibga solish vositasi sifatida tan olingan korporativ shartnoma (**shareholder agreement**) milliy qonunchiligimizda nisbatan yangi tushuncha. Korporativ shartnomaning predmeti ishtirokchilarning huquqlarni amalga oshirish tartibi va shartlari bo'yicha majburiyatlarini, shuningdek, muayyan passiv turdagi majburiyatlarni qamrab oladi. Korporativ huquq tizimi rivojlangan davlatlarda korporativ shartnomaning predmetiga qarab turli shakllari ajratilgan. Masalan, Germaniyada ulushlarga oid huquqlarini amalga oshirish (**Pooling and consortium agreements**), ovoz berish huquqini amalga oshirish (**Shareholder voting agreements**) va huquqlarni amalga oshirishda yon berish (**Mutual understanding**) shartnomalari mavjud [25]. Adabiyotlarda korporativ shartnomaning quyidagi xususiyatlari ajratilib ko'rsatiladi: tuzilgan sanasi va shartnomaning amal qilish muddati ko'rsatilishi, yozma shaklda rasmiylashtirilishi, faqatgina ishtirokchilar taraf sifatida imzolashi, tekinga tuzilishi, mazmuni maxfiy va/yoki oshkor etilishi, korporativ shartnoma qoidalariga zid ravishda tuzilgan boshqa shartnoma yuridik kuchga ega bo'lmasligi (ikkinchi taraf bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan holat isbotlanganda), unga asosan korporativ shartnoma qoidalariga muvofiq qaytarib bo'lmaydigan ishonchnoma berilishi mumkinligi [26].

Korporativ huquqning ajralmas obyekti hisoblangan korporativ shartnoma ustavdan farqli ravishda qo'shimcha huquqlarni yoki majburiyatlarni belgilamaydi, aksincha mavjud huquqlarni amalga oshirish tartibini belgilaydi. Masalan, ustavda ulushni uchinchi shaxslarga sotish huquqida boshqa ishtirokchilarning olish zarurati nazarda tutilgan taqdirda, korporativ shartnomada uni amalga oshirish mexanizmi, ya'ni ulushni sotmoqchi bo'lgan ishtirokchi tomonidan amalga oshirish shart bo'lgan harakatlar, muddatlar va shartlar, shuningdek ulushga qiziqish bildirgan boshqa ishtirokchilarning o'z huquqlarini amalga oshirish tartibi belgilanadi. Bu borada V. Vasilyeva korporativ shartnoma jamiyat ustavi bilan hal qilinishi mumkin bo'lgan masalalarni, jumladan ishtirokchilarning huquqlari doirasiga ta'sir qilmasligini, jamiyatning korporativ boshqaruv tuzilmasini o'zgartira va ovoz berish tartibini o'zgartira olmasligini ta'kidlaydi [27]. Shu o'rinda, korporativ shartnoma orqali ishtirokchilarning ovoz berish tartibi (navbati) emas, balki ishtirokchilarning ovozi nisbati o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmasligini ta'kidlash joiz. Shuningdek, korporativ shartnoma tuzish ishtirokchilarning ixtiyoriga bog'liq bo'lib, jamiyatning ustavidek majburiy xarakterga ega emas.

Qonunchilikda yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shaklini ifodalashda uning ustav fondi bilan farqlanishi, jamiyat faoliyatida ustav fondining muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) jamiyat ishtirokchilari tomonidan jamiyat faoliyatini moliyalashtirish uchun ustavda belgilangan hajmda shakllantiriladigan mol-mulk, shuningdek mulkiy mablag'lar yig'indisidir. I. Petrenko, ustav kapitali tushunchasiga - bu kompaniyaning ta'sis hujjatlarida pul ko'rinishida belgilanadigan va jamiyat bilan munosabatlarga kirishayotgan kontragentlar (kreditlar) manfaatlarini kafolatlaydigan jamiyat aktivlarining minimal qiymatini aks ettiruvchi eng kam miqdor deb ta'rif beradi [28]. Ushbu ta'rifga de yure qo'shilsak-da, aksariyat davlatlar qonunchiligi, shu jumladan O'zbekistonda ham jamiyat ustav kapitalining jamiyat aktivlariga nisbati nazorati murakkab mexanizmga egaligi (tekshirishda aniqlanishi mumkin) va doim ham shaffof emasligi sababli de facto jamiyat ustav fondini jamiyat aktivlarining minimal qiymatini aks ettiruvchi ko'rsatkich deb qarash har doim ham to'g'ri emas. MChJda tekshirish o'tkazilmasa, davlat organlari tomonidan ushbu nisbatni aniqlash imkoniyati deyarli mavjud emas. Kontragentlar ham aksariyat hollarda MChJning o'zi tomonidan berilgan ma'lumotlarga tayangan holda harakatlanishadi. Bu o'z navbatida jamiyatning ustav fondi (kapitali)ni shakllantirilishi va uning aktivlarga nisbatini shaffoflashtirishni taqozo etadi.

Jamiyat tushunchasining huquqiy-terminologik ta'rifida, jamiyatning "ustav fondi" va "ustav kapitali" bir xil tushuncha sifatida yuritilib, ustav fondi (ustav kapitali) jamiyatning ustavida belgilangan

miqdorlarda ulushlarga bo'lingan va uning ishtirokchilari ulushlarining nominal qiymatidan iborat bo'lishi qayd etilgan. Biroq nazariy jihatdan olib borilgan tadqiqotlarda jamiyatning "ustav fondi" va "ustav kapitali" tushunchalarining ayrim jihatlari farqlangan. Huquqshunos olimlar V.Tereshenko va A.Federova o'zlarining tadqiqotlari yakunida, jamiyatning ustav kapitali tushunchasiga - bu jamiyat mulkdorlari tomonidan uning moliya-xo'jaligi faoliyatini amalga oshirishi uchun foyda olish maqsadida kiritilgan boshlang'ich mablag' deb, jamiyatning ustav fondi tushunchasiga - tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan jamiyatga berilgan mulk bilan bir qatorda jamiyatning faoliyati davomida orttirilgan moliyaviy resurslar hamda boshqa moddiy va nomoddiy aktivlar, shuningdek va jamiyatning mulki deb xulosaga kelishgan [29]. Mualliflar "ustav fond" va "ustav kapital" tushunchalarining farqli jihatlari asoslantirib ta'riflashgan bo'lsa-da, biz jamiyatning ustav fondi jamiyatning mulkini qamrab olmaydi deb hisoblaymiz. Jamiyatning ustav fondi bu jamiyatning bank hisob raqamidagi pul mablag'i yoki mol-mulki emas, balki shartli qiymat hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyat hisob raqamidagi pul mablag'i o'zgarsa, jamiyat mulkining narxi o'zgaradi, lekin bu ustav fondining hajmiga ta'sir qilmaydi.

Jamiyat ustav fondining eng kam miqdorini belgilanishi uzoq vaqtdan buyon munozarali masala bo'lib kelmoqda. Qonunchilikda ustav fondining eng kam miqdorini belgilash tarafdorlari (kontinental huquq an'anasida) bunday talabning belgilanishi eng avvalo biznesni himoya qilish ustuni, kreditorlar uchun "himoya buferi" deb qarashadi. Mustahkam ustav kapitali tamoyili korporativ huquqda kreditorlar manfaatlarini himoya qilish va ehtiyotkorlik bilan biznes yuritish uchun uning ishonchliligini ta'minlash uchun qabul qilingan [30]. Umumiy huquq tizimi davlatlari, xususan AQShda jamiyat ustav kapitaliga qo'yilgan minimal talablarni bekor qilinib, biznesni kafolatlashda boshqa usullarini joriy etish choralari ko'rilmogda. Jumladan, O'zbekiston qonunchiligida kreditorlar manfaatlarini himoya qilishda an'anaviy "mustahkam ustav kapitali" tamoyili o'rniga to'lovga qobiliyatlik testi (Solvency test) konsepsiyasi joriy etilgan bo'lib, mazkur test talablari bajarilmagan hollarda jamiyat ishtirokchilari o'rtasida jamiyat mol-mulki taqsimlashga yo'l qo'yilmaydi. Garchi O'zbekistonda mas'uliyati cheklangan jamiyatlar institutining dastlabki huquqiy tartibga solinishi mustahkam ustav kapitali tamoyiliga asoslangan bo'lsa-da, 2011-yildan boshlab jamiyat ustav fondining eng kam miqdoriga oid qonunchilik talablari bekor qilinib, kreditorlar manfaatlarini ta'minlashning asosiy huquqiy mezoni sifatida to'lovga qobiliyatlik testi joriy etildi. Mazkur yondashuv O'zbekistonda mas'uliyati cheklangan jamiyatlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik romano-german huquq tizimiga xos institutlar bilan bir qatorda anglo-amerika huquq tizimiga mansub korporativ-huquqiy mexanizmlarni ham o'zida mujassam etgan aralash huquqiy model asosida shakllanganligini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, MChJ zamonaviy korporativ huquqning eng keng tarqalgan tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri bo'lib, uning huquqiy tabiati ishtirokchilarning jamiyat majburiyatlari bo'yicha cheklangan mulkiy javobgarligi, mustaqil yuridik shaxs maqomi hamda korporativ boshqaruvning o'ziga xos mexanizmlari bilan tavsiflanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida MChJlar faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi normalar shakllangan bo'lsa-da, ularni takomillashtirishni taqozo etuvchi qator masalalar saqlanib qolmoqda. Xususan, ishtirokchilar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, korporativ boshqaruvning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, shuningdek, korporativ nizolarning oldini olishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan, milliy qonunchilikni xalqaro tajriba va zamonaviy korporativ huquq tamoyillari asosida izchil rivojlantirish, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar faoliyatini tartibga soluvchi normalarni huquqni qo'llash amaliyoti ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish hamda davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonida ustavning qonun hujjatlariga muvofiqligini tekshirishga oid huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa korporativ munosabatlarda huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta'minlash, investorlar ishonchini mustahkamlash hamda mamlakatda qulay investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. AQShdagi yopiq korporatsiyalar, Buyuk Britaniyadagi xususiy kompaniyalar va Rossiya Federatsiyasidagi ommaviy bo'lmagan jamiyatlar ko'p jihatdan MChJga o'xshashligi inobatga olingan holda jamiyatning analogi degan to'xtamga kelingan. Note: Considering that closed corporations in the United States, private companies in the United Kingdom, and non-public companies in the Russian Federation are largely similar to Limited Liability Companies (LLCs), they are regarded as analogous forms of LLCs.
2. Bryer, R. A. 1997. "The Mercantile Laws Commission of 1854 and the Political Economy of Limited Liability." *The Economic History Review*, New Series 50(1): 37-56. Bryer, R. A. (1997). *The Mercantile Laws Commission of 1854 and the Political Economy of Limited Liability*. *The Economic History Review*, New Series, 50(1), 37–56. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1111/1468-0289.00044>
3. Saul Levrnore, Partnerships. Limited Liability Companies. and Taxes: A Comment on the Survival of Organizational Forms, 70 WASH. U. L.Q. 489, 492 (1992). (Levrnore, S. (1992). Partnerships, Limited Liability Companies, and Taxes: A Comment on the Survival of Organizational Forms. *Washington University Law Quarterly*, 70, 489–492. https://chicagounbound.uchicago.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=2613&context=journal_articles
4. Title: The Birth of the Limited Liability Company (GmbH): Historical Development and Comparative Perspectives. Repository: Econstor. <https://www.econstor.eu/bitstream/10419/145311/1/865831394.pdf>
5. Havel, B. Společnost s ručením omezeným na úsvitu rekodifikace. Havel, B. Limited Liability Company at the Dawn of Recodification. https://www.mfcr.cz/assets/cs/media/Bulletin-knihovny-MF_2012-c-01_Dokumentacni-bulletin-MF-c-12012.pdf?utm_source=chatgpt.com
6. Obchodněprávní rozhledy 2011; 12: 351. *Commercial Law Review (Obchodněprávní rozhledy)*, No. 12, 2011, p. 351 https://www.researchgate.net/publication/275540994_The_Limited_Liability_Company_as_a_Universal_Legal_Form_of_Business
7. Larry E. Ribstein, The Deregulation of Limited Liability and the Death of Partnership, 70 WASH. U. L.Q. 417, 427 (1992). Ribstein, L. E. (1992). The Deregulation of Limited Liability and the Death of Partnership. *Washington University Law Quarterly*, 70, 417–427. https://openscholarship.wustl.edu/law_lawreview/vol70/iss2/9/
8. Saul Levrnore, Partnerships. Limited Liability Companies. and Taxes: A Comment on the Survival of Organizational Forms, 70 WASH. U. L.Q. 489, 491 (1992). <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=v19202020 - zakon respubliky belarus 9 dekabrya 1992 g. № 2020-XII>
9. Hardman, J 2023, Insolvency law through the lens of company law theories. in E Ghio, JM Wood & JLL Gant (eds), *Re-examining Insolvency Law and Theory: Perspectives for the 21st Century*. Edward Elgar Publishing, pp. 216-227. <https://doi.org/10.4337/9781803928760.00020> - Chapter 13: Insolvency law through the lens of company law theories
10. H Hansmann and R Kraakman, 'Organizational Law as Asset Partitioning' (2000) 44 *European Economic Review* 807. Hansmann, H., & Kraakman, R. (2000). Organizational Law as Asset Partitioning. *European Economic Review*, 44, 807–817 <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0014292100000465>
11. Ioffe O.S. Izbrannie trudi po grazhdanskomu pravu. – M.: Statut, 2000. – 782 s. Ioffe, O. S. (2000). *Selected Works on Civil Law*. Moscow: Statut. https://www.consultant.ru/edu/student/download_books/book/izbrannye_trudy_po_grazhdanskomu_pравu_iz_istorii_civilisticheskoy_mysli_grazhdanskoe_pravootnoshenie_kritika_teorii_hozyajstvennogo_prava/
12. Rahmonqulov Hoji-Akbar. Majburiyat huquqi (umumiy qoidalar). /Huquqshunoslik ixtisosligi bo'yicha oliy o'quv yurtlari "Xususiy huquq" yo'nalishi magistratura talabalari uchun. – T.: TDYuL, 2005 y. Rakhmonkulov, Khoji-Akbar. (2005). *Law of Obligations (General Provisions): Textbook for Master's Students Specializing in Private Law*. Tashkent: Tashkent State Institute of Law.
13. Delaware Corporations LLC <https://www.delawarecorp.com>
14. Title: Handelsregister (German Commercial Register) <https://www.handelsregister.de>
15. A. Koch, J. Napierała Prawo spółek handlowych Warszawa 2013, p. 264. (Koch, A., & Napierała, J. (2013). *Commercial Company Law*. Warsaw, p. 264.) https://static.profinfo.pl/file/core_products/2019/10/21/cae99afcd150b7d0ec571d7045c3a3b5/prawo-spolek-handlowych.pdf
16. Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom <https://lex.uz/ru/docs/3111347#3112265>
17. Пункт 1 статьи 14 ФЗ «Об обществах с ограниченной ответственностью» (Federal Law of the Russian Federation "On Limited Liability Companies", Article 14, Paragraph 1.)

18. «Журнал юриспруденция // Молодой ученый», № 23 (261), С. 477, июнь 2019 г.» (Young Scientist (Molodoy Uchenyy). Jurisprudence Journal, No. 23 (261), June 2019, p. 477.)
19. Investopedia Title: Articles of Association. <https://www.investopedia.com/terms/a/articles-of-association.asp>
20. Articles of Association by Prof. Reyazuddin-converted (1).pdf (nou.ac.in) https://www.researchgate.net/profile/Narsh-Pawar-6/publication/374782936_Problems_And_The_Solutions_Of_Teaching/links/652f90327d0cf66a673a81d2/Problems-And-The-Solutions-Of-Teaching.pdf
21. Artikel 2, 8 und 9 des deutschen GmbH-Gesetzes (Übersetzung) (Articles 2, 8 and 9 of the German Limited Liability Companies Act (GmbHG) (Translation).) https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_gmbhg/englisch_gmbhg.html
22. Внесение изменений в учредительные документы общества с ограниченной ответственностью <https://39.notariat.ru/ru-ru/help/stati-i-publikacii/vnesenie-izmenenij-v-uchreditelnye-dokumenty-obshchestva-s-ogranic/>
23. Schneider G., Stefano M. Doing business in Germany. 2014. URL: https://www.tiefenbacher.de/fileadmin/tiefenbacher_neu/seiteninhalt/broschueren/Doing_Business_in_Germany.pdf
24. Davies, Paul L., and Lawrence CB Gower. Principles of modern company law. Vol. 17511. London: Sweet & Maxwell, 2008. В. 36. https://autodiscover.mdkgcollege.edu.in/slug/EBOOK/130726/F82Z070360/gower_and_davies-the-principles-of-modern_company_law.pdf
25. Shareholders' Agreements in Listed Companies: Germany • Markus Roth, University of Marburg <https://www.readcube.com/articles/10.2139%2Fssrn.2234348>
26. Общество с ограниченной ответственностью по новому закону: обобщение законодательства, комментарии, образцы документов / Д.В.Журавлев, А.В.Коротюк, К.И.Чижмар. Киев: ОИК, 2019. - 27 с.2 (Журавлев, Д.В., Коротюк, А.В., & Чижмар, К.И. (2019). Limited Liability Company under the New Law: Overview of Legislation, Commentary, and Sample Documents. Kyiv: OIK.) https://www.grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/download/633/533/1051?utm_source=chatgpt.com
27. Корпоративное право Украины: проблемы теории и практики: монография / Васильева В. А., Зелиско А. В., Луск В. В., Саракун И. Б., Сыщук Л. В. [и др.]; под общ. ред. проф. В. А. Васильевой. Ивано-Франковск, 2017. – 228 с. (Васильева, В. А., Зелиско, А. В., Луцк, В. В., Саракун, И. Б., Сищук, Л. В., и др. (2017). Corporate Law of Ukraine: Problems of Theory and Practice. Monograph. Ivano-Frankivsk.) https://www.pravo-izdat.com.ua/image/data/Files/494/3_Korporativne_pravo_Ukraini_vnutri.pdf?utm_source=chatgpt.com
28. И. Петренко диссертация на тему: "Общество с ограниченной ответственностью как корпоративное юридическое лицо: особенности создания и управления" г. Краснодар, 2012 год (Петренко, И. (2012). Limited Liability Company as a Corporate Legal Entity: Peculiarities of Establishment and Management. Doctoral Dissertation. Krasnodar.) <https://www.dissercat.com/content/obshchestvo-s-ogranichennoi-otvetstvennostyu-kak-korporativnoe-yuridicheskoe-litso-osobennos>
29. В. С. Терещенко, А. А. Федорова. "Уставный фонд и уставный капитал: общие и отличительные черты". (Терещенко, В.С., & Федорова, А. А. Charter Fund and Charter Capital: Common and Distinctive Features.) https://be5.biz/ekonomika1/r2009/index.htm?utm_source=chatgpt.com
30. Lutter M. (2006) The (fixed) capital of the joint-stock company in Europe — Summary of the considerations of the working group «Capital in Europe» The capital of the joint stock company in Europe. Journal of Corporate and Company Law. Special Issue 17. Berlin pp19. <https://www.semanticscholar.org/paper/Legal-Capital-in-Europe-Lutter/bb92c8df8707770c6fa0e569d37bd176cdcb96d1>

YURIST AXBOROTNOMASI
4-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА
НОМЕР 4

LAWYER HERALD
ISSUE 4

ISSN 2181-9416
DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/4
2026-YIL